

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**XALQ TA’LIMI XODIMLARI MEHNATIGA HAQ TO’LASHNING
TAKOMILLASHTIRILGAN TIZIMINI TASDIQLASH TO’G’RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi xodimlari mehnatiga haq to’lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag‘batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida” 2005-yil 25-noyabrda PQ–227-son [qarorini](#) bajarish yuzasidan hamda iqtidorli, o‘z kasbiga sodiq pedagoglarni rag‘batlantirish, o‘qituvchilar mehnatiga haq to’lashning adolatli va oshkora mexanizmini joriy etish hisobiga ularning tashabbuskorligi va kasb mahorati o‘shirishini rag‘batlantirish, umumta’lim maktablari xodimlari mehnatini baholash va moddiy rag‘batlantirish masalalarini hal qilishda maktablarning mustaqilligini oshirish hamda pedagogik jamoalar huquqlarini kengaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisida davlat hokimiyati mahalliy organlari, xalq ta’limini boshqarish hududiy organlari, pedagoglar jamoatchiligi vakillari ishtirokida xalq ta’limi xodimlari mehnatiga haq to’lashning takomillashtirilgan tizimi har tomonlama muhokama qilinganligi va ma’qullanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Maktab va maktabdan tashqari ta’lim, madaniyat va sport muassasalari pedagog va boshqa xodimlari mehnatiga haq to’lash bo’yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari [1-ilovaga](#) muvofiq;

Maktab va maktabdan tashqari ta’lim, madaniyat va sport muassasalari rahbar xodimlari mehnatiga haq to’lash bo’yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari [2-ilovaga](#) muvofiq;

Davlat maktabgacha ta’lim tizimi rahbar, pedagog va boshqa xodimlari mehnatiga haq to’lash miqdorlari [2a-ilovaga](#) muvofiq;

Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlari xodimlari mehnatiga haq to’lash miqdorlari [2b-ilovaga](#) muvofiq;

Xalq ta’limi xodimlari mehnatiga haq to’lash to’g’risidagi nizom [3-ilovaga](#) muvofiq.

3. Belgilab qo’yilsinki:

Direktor jamg‘armasi barcha umumta’lim muassasalarida — maktablarda tashkil etiladi;

Direktor jamg‘armasi mablag‘lari faqat umumta’lim muassasalarining o‘qituvchilariga ustamalar belgilash uchun yo‘naltiriladi;

Direktor jamg‘armasi mablag‘laridan ustamalar bilan umumta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya jarayoniga katta shaxsiy hissa qo‘shayotgan, o‘z kasbiga sodiqlik va tashabbuskorlik, yuqori kasb darajasini namoyon etayotgan iqtidorli o‘qituvchilari rag‘batlantiriladi.

Umumta’lim muassasalari xodimlariga Direktor jamg‘armasidan har oylik ustamalar va boshqa rag‘batlantirishlar belgilash to’g’risidagi qarorlar umumta’lim muassasalari huzuridagi maxsus komissiyalar tomonidan qabul qilinadi.

Bunda xalq ta’limini boshqarish hududiy organlarining umumta’lim muassasalari huzuridagi maxsus komissiyalar faoliyatiga va ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Umumta’lim muassasalari o‘qituvchilariga qo‘shimcha haq to‘lovlari mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga nisbatan foiz hisobida quyidagi miqdorlarda amalga oshiriladi:

a) sinfdagi o‘quvchilar soniga ko‘ra sinf rahbarligi uchun:

15 nafar o‘quvchigacha — 26,4 foiz;

16 nafardan 20 nafar o‘quvchigacha — 31,6 foiz;

21 nafardan 25 nafar o‘quvchigacha — 36,9 foiz;

26 nafardan 30 nafar o‘quvchigacha — 42,1 foiz;

31 nafar va undan ko‘p o‘quvchi bo‘lganda — 52,8 foiz;

b) daftarlarni va yozma ishlarni tekshirganlik uchun (o‘quvchilar ikki guruhga bo‘lib o‘qitiladigan fanlar bo’yicha ham) ajratilgan dars soatlariga mutanosib ravishda sinfdagi (sinf —

komplektidagi) o'quvchilar soni 15 nafargacha bo'lganda — 8,8 foiz, 15 nafar va undan ortiq bo'lganda — 17,6 foiz;

v) informatika kabineti mudirligi uchun — 17,6 foiz;

g) laboratoriya xonasi mavjud bo'lganda, fizika yoki kimyo fani o'qituvchilaridan biriga — 50 foiz.

Bunda o'qituvchilar yozgi yillik mehnat ta'tilidan qaytgandan keyin ularga yangi o'quv yili boshlangunga qadar daftarlarni va yozma ishlarni tekshirganlik hamda informatika kabineti mudirligi uchun qo'shimcha haq to'lovlari amalga oshirilmaydi.

5. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan birgalikda, Moliya vazirligi bilan kelishgan holda, ikki hafta muddatda Umumta'lim muassasasi-maktab huzuridagi maxsus komissiya to'g'risidagi nizomni ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin, unda:

maxsus komissiyaning huquqlari va mas'uliyati, uning majlislarini o'tkazish va qarorlar qabul qilish tartibini;

pedagogik mehnatni baholash mezonlari asosida o'qituvchilarning bazaviy tarif stavkalariga ustamalarning aniq miqdorlarini belgilash tartibini;

Direktor jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish tartibi va mansabdor shaxslarning mas'uliyatini;

maxsus komissiyalarning samarali faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq boshqa masalalarni tartibga solish nazarda tutilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi Xalq ta'limi vazirligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan birgalikda bir oy muddatda xalq ta'limi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini hamda Rahbar va pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalari berish tartibi to'g'risidagi Nizomni, keyinchalik ularni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazgan holda, qayta ko'rib chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin, ularda:

pedagog xodimlar malakasini, bilim darajasini va pedagogik mahoratini baholashning ular malakasi xolisona baholanishini ta'minlovchi mezonlarini takomillashtirish, shuningdek pedagog malakasi pasaygan taqdirda belgilangan toifani pasaytirish;

o'qituvchilar lavozimiga faqat oliy yoki o'rta maxsus, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar qabul qilinadigan tartibni belgilash;

malaka toifasi berish uchun zarur bo'lgan eng kam staj muddatlarini belgilash nazarda tutilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 2006-yil 1-yanvargacha xalq ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish yuzasidan, ayniqsa joylarda zarur tayyorgarlik va tushuntirish ishlarini amalga oshirsin;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi bilan birgalikda 2006-2007-yillar mobaynida umumta'lim muassasalarining barcha pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazsin hamda uning natijalariga ko'ra xodimlarga tegishli malaka toifalarini belgilasin.

Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2006-yil I yarim yilligi yakunlari bo'yicha majlisida axborot berilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining Ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari kotibiyati O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari xalq ta'limi muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlarning amalga oshirilishi ustidan qattiq monitoring o'rnatishlar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi monitoring asosida har chorakda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga mazkur qarorda nazarda tutilgan chora-tadbirlarni amalga

oshirish bo'yicha xarajatlarning o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilishi to'g'risida belgilangan tartibda axborot bersinlar.

9. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 5-iloraga muvofiq ayrim qarorlari 2006-yil 1-yanvardan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari V.A. Golishev va R.S. Qosimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2005-yil 21-dekabr,
275-son

Vazirlar Mahkamasining
2005-yil 21-dekabrda 275-son qaroriga
1-ILOVA

Maktab va maktabdan tashqari ta'lim, madaniyat va sport muassasalari pedagog va boshqa xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari

T/r	Lavozimlar nomi	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan (koeffitsiyentda)				
		oliy malaka toifali	birinchi malaka toifali	ikkinchi malaka toifali	oliy ma'lumotli	o'rta maxsus ma'lumotli
1.	Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining o'qituvchisi, o'qituvchi-logopedi, logopediya shoxobchasi mudiri, o'qituvchi-defektologi, inklyuziv ta'lim tizimi joriy qilingan va tayanch korreksion sinflar ochilgan umumta'lim maktablarining maxsus pedagogi	4,047	3,662	3,287	2,936	2,744
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari qoshidagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va psixologik xizmat sho'basini xodimlari	3,871	3,503	3,144	2,808	2,625
3.	Maktabdan tashqari ta'lim muassasasining o'qituvchi-treneri, oliy sport mahorati maktablari, sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar-o'smirlar sport maktablarining, bolalar sport maktablarining instruktor-metodistlari, sport psixologi	2,845	2,657	2,487	2,318	2,154
4.	Bolalar musiqa va san'at maktabi o'qituvchisi	3,396	3,178	2,961	2,753	2,552

5.	Bolalar musiqa va san'at maktabi, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktabi hamda maktab-internati konsertmeysteri	2,961	2,753	2,552	2,361	2,179
6.	Barcha tipdagi muassasalar tarbiyachisi, katta tarbiyachisi (tarbiyachi-metodist)	4,047	3,662	3,287	2,936	2,058
7.	Umumiy o'rta tipdagi muassasalar psixologlari, "Mehribonlik" uylari va bolalar shaharchalari psixologlari	3,205	3,022	2,829	2,642	2,470
8.	Barcha tipdagi muassasalarning psixologi (7-banddan tashqari) va maktabdan tashqari muassasalari instruktor-metodisti (3 va 11-bandlardan tashqari)	1,795	1,668	1,547	1,430	1,321
9.	Barcha muassasalardagi metodist, pedagog-tashkilotchi, to'garaklar rahbarlari, barcha ixtisosliklar instruktorlari, akkomponiator, musiqa rahbari, madaniyat ishlari bo'yicha tashkilotchi (11-banddan tashqari)	1,579	1,453	1,332	1,216	1,106
10.	Barcha muassasalardagi studiyalar, seksiyalar rahbarlari, katta vojayati, ekskursovod	1,511	1,390	1,274	1,163	1,057
11.	"Barkamol avlod" bolalar maktablarining to'garak rahbarlari, instruktor-metodistlari va metodistlari, "Mehribonlik" uylari musiqa rahbarlari va trener yo'riqchisi, bolalar shaharchalari musiqa rahbarlari	2,724	2,506	2,297	2,097	1,907
12.	Kutubxona mudiri				2,018	1,849
13.	Kutubxonachi				1,688	1,604

Izoh:

Maktabdan tashqari muassasalar bo'lim, seksiya, laboratoriya, kabinet mudirining ish haqi miqdori (kontingentdan qat'i nazar) ikkinchi malaka toifali to'garak rahbarining ish haqiga teng miqdorda belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablar to'garak rahbarlarining bazaviy tarif stavkasi miqdorlari davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari oliy ma'lumotli o'qituvchisi bazaviy tarif stavkasining 80 foizi miqdorida belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining
2005-yil 21-dekabrdagi 275-son qaroriga
2-ILOVA

Maktab va maktabdan tashqari ta'lim, madaniyat va sport muassasalari rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari

T/r	Lavozimlar nomi	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan (koeffitsiyentda)			
		I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh
I	Rahbarlar				
1.1	Umumiy o'rta ta'lim tashkiloti direktori	5,844	5,525	5,210	4,879
1.2	"Mehribonlik" uyi direktori	4,342	4,066	x	x
1.3	Maktabdan tashqari muassasa direktori	1,795	1,668	1,547	x
1.4	"Barkamol avlod" bolalar maktabi direktori	2,782	2,586	2,398	x
1.5	Respublika dam olish maskani direktori	3,738	3,501	3,501	x
1.6	Oliy sport mahorati maktabi, sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar-o'smirlar sport maktabi direktori	3,037	x	x	x
1.7	Bolalar sport maktabi direktori	2,845	2,657	2,487	x
1.8	Bolalar musiqa va san'at maktabi direktori	4,074	3,814	x	x
II	Rahbarlarning o'rinbosarlari				
2.1	Umumiy o'rta ta'lim tashkiloti direktorining o'rinbosarlari (2.9-banddan tashqari), maktab maslahatchisi	5,295	4,993	4,676	4,368
2.2	"Mehribonlik" uyi direktorining o'rinbosari	4,066	3,798	x	x
2.3	Maktabdan tashqari muassasa direktorining o'rinbosarlari (2.8-banddan tashqari)	1,668	1,547	1,430	x
2.4	"Barkamol avlod" bolalar maktabi direktorining o'rinbosarlari (2.8-banddan tashqari)	2,586	2,398	2,217	x
2.5	Oliy sport mahorati maktabi, sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari bolalar-o'smirlar sport maktabi direktorining o'rinbosari	2,845	x	x	x
2.6	Sport maktabi direktorining o'rinbosari, filial direktorlari	2,657	2,487	2,318	x
2.7	Bolalar musiqa va san'at maktabi direktorining o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari	3,814	3,554	x	x
2.8	Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari	1,980	1,828	1,681	1,541
2.9	Umumiy o'rta ta'lim tashkiloti direktorining xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari	2,277	2,102	1,933	1,772
2.10	Bolalar musiqa va san'at maktabi direktorining xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari	2,178	2,011	1,849	1,695

Izoh: umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining Vatanparvarlik ruhida yoshlarni tayyorlash bo'yicha direktor o'rinbosari — Harbiy chaqiriqqacha tayyorgarlik rahbarining ish haqi miqdori umumta'lim maktabining oliy ma'lumotli (toifasiz) o'qituvchisi bazaviy tarif stavkasi miqdoriga tenglashtiriladi.

Vazirlar Mahkamasining
2005-yil 21-dekabrdagi 275-son qaroriga
2a-ILOVA

Davlat maktabgacha ta'lim tizimi rahbar, pedagog va boshqa xodimlari mehnatiga haq to'lash miqdorlari

1. Davlat maktabgacha ta'lim tizimi pedagog va boshqa xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari:

T/r	Lavozim nomi	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan (koeffitsiyentda)				
		oliy malaka toifali	birinchi malaka toifali	ikkinchi malaka toifali	oliy ma'lumotli	o'rta maxsus (kasb-hunar) ma'lumotli
1.	Til o'qituvchilari, o'qituvchi-defektolog, o'qituvchi-logoped, davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'qituvchisi, oliy ma'lumotli tayyorgarlik guruhi (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) tarbiyachilari	4,047	3,662	3,287	2,936	1,859*
2.	Tarbiyachi-metodist, tarbiyachi (oliy ma'lumotli tayyorgarlik guruhi (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) tarbiyachilaridan tashqari)	4,047	3,662	3,287	2,936	1,717*
3.	Psixologlar	3,238	3,052	2,858	2,669	1,859*
4.	Musiqaxodimi, xoreograf, barcha ixtisosliklar yo'riqchilari	2,053	1,889	1,731	1,580	1,437
5.	Oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar pedagogik ma'lumotli tarbiyachi yordamchisi	1,567				
6.	Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar nopedagogik ma'lumotli va umumiy o'rta ma'lumotli tarbiyachi yordamchisi	1,249				

*Mazkur bazaviy tarif stavkasi oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishlarida kunduzgi, kechki, sirtqi bo'limlarning 3 va undan yuqori kurslarida o'qiyotgan shaxslar tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashda qo'llanadi.

2. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari:

T/r	Lavozim nomi	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan (koeffitsiyentda)	
		I guruh	II guruh
1.	Direktor	4,676	4,368

Izoh. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining bazaviy tarif stavkasi tashkilotlar guruhidan kelib chiqib belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining
2005-yil 21-dekabrda 275-son qaroriga
2b-ILOVA

Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlari mehnatiga haq to'lash miqdorlari

1. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari:

T/r	Lavozimlar nomi	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan (koeffitsiyentda)				
		Shaharlar-viloyatlar markazlari, Nukus shahri va qishloq tumanlari		Shahar tumanlari		Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar
		I guruh	II guruh	I guruh	II guruh	
1.	Bo'lim boshlig'i	3,439	3,234	3,234	3,032	3,234
2.	Bo'lim boshlig'i o'rinbosari, sho'ba boshlig'i	2,836	2,643	2,836	2,643	2,643
3.	Bosh mutaxassis	2,511	2,331	2,511	2,331	2,331
4.	Yetakchi mutaxassis	2,260	2,098	2,260	2,098	2,098
5.	Mutaxassis	1,636	1,510	1,636	1,510	1,510

2. Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari:

T/r	Lavozimlar nomi	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan (koeffitsiyentda)		
		Shaharlar-viloyatlar markazlari, Nukus shahri, qishloq tumanlari, shahar tumanlari		Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar
		I guruh	II guruh	
1.	Bosh buxgalter	4,127	3,881	3,881
2.	Bosh buxgalter o'rinbosari, bosh iqtisodchi, bosh iqtisodchi — guruh rahbari	3,881	3,639	3,639
3.	Guruh rahbari (xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha, tovar-moddiy qimmatliklar hisobi bo'yicha, davlat xaridlari va shartnomalar bo'yicha, oziq-ovqat mahsulotlari hisobi bo'yicha)	3,639	3,403	3,403
4.	Bosh mutaxassis (iqtisodchi, xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha buxgalter, tovar-moddiy qimmatliklar hisobi bo'yicha buxgalter, oziq-ovqat mahsulotlari hisobi bo'yicha buxgalter, davlat xaridlari va shartnomalar bo'yicha mutaxassis)	3,171	2,945	2,945

3. Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy tarif stavkalari miqdorlari:

T/r	Lavozimlar nomi	Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan (koeffitsiyentda)	
		Shaharlar-viloyatlar markazlari, Nukus shahri,	

		qishloq tumanlari, shahar tumanlari		Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar
		I guruh	II guruh	
1.	Xizmat boshlig'i-bosh muhandis	2,587	2,426	2,426
2.	Bosh mutaxassis	2,114	1,963	1,963
3.	Mutaxassis (<i>ta'lim muassasalari qozonlari va isitish tizimlarini nazorat qilish bo'yicha</i>), kommunal xizmatlar bo'yicha inspektor, binolarning texnik holati va infratuzilmasini nazorat qilish va jihozlash bo'yicha muhandis	1,963	1,813	1,813

3.1. Maxsus ta'mirlash-ekspluatatsiya xizmati xodimlari mehnatiga haq to'lash razryadlari:

T/r	Lavozimlar nomi	Mehnatga haq to'lash razryadlari
1.	Elektromontyor, chilangar-santexnik, payvandchi	6
2.	Dispetcher, ekspeditor	5
3.	Yengil avtomobil haydovchisi	*

*Mazkur lavozimlar bo'yicha mehnatga haq to'lash razryadlari amaldagi qonunchilikka asosan belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining
2005-yil 21-dekabrdagi 275-son qaroriga
3-ILOVA

Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risida

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005-yil 25-noyabrdagi PQ-227-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan hamda budjetdan mablag' bilan ta'minlanadigan yoki aralash moliyalashtiriladigan xalq ta'limi muassasalari pedagog xodimlari va rahbarlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlarini belgilaydi.

Ushbu Nizomning amal qilishi:

budjet tashkilotlari uchun qo'llaniladigan Yagona tarif setkasi asosida xalq ta'limi tizimi muassasalarining texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 12-apreldagi 147-son qaroriga muvofiq Yagona tarif setkasi asosida xalq ta'limi davlat boshqaruvi organlari xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

2. Xalq ta'limi tizimi xodimlari mehnatining ish haqi bazaviy tarif stavkasini hamda O'zbekiston Respublikasining qonunchilikda va ushbu Nizomda nazarda tutilgan ustamalar va qo'shimcha to'lovlarni o'z ichiga oladi.

II. Xalq ta'limi muassasalari xodimlarining tarif stavkalari (lavozim maoshlari)

3. Xalq ta'limi xodimlarining lavozim maoshlari:

xalq ta'limi muassasalarining pedagog xodimlari va rahbar xodimlarining har bir lavozimi va malaka toifasi uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari asosida shakllantiriladi. Bazaviy tarif stavkasi Yagona tarif setkasi bo'yicha tarif stavkasini hamda qonunchilikda belgilangan tarif stavkasiga doimiy ustamalarni, shuningdek pedagog va rahbar xodimlarning ayrim toifalari ish haqiga qo'shilgan kompensatsiya to'lovlarni o'z ichiga oladi;

xodimlarga qonunchilikda belgilangan ustamalar va qo'shimcha to'lovlar asosida shakllantiriladi.

Xalq ta'limi pedagog xodimlarining bazaviy tarif stavkalari:

xodimning lavozimiga;

xodimning malaka toifasiga;

xalq ta'limi muassasasining tipiga bog'liq ravishda tabaqalashtiriladi.

Xalq ta'limi muassasalari rahbarlarining bazaviy tarif stavkalari quyidagi jadvalga binoan o'quvchilar (tarbiyalanuvchilar) kontingentiga qarab muassasalar guruhidan kelib chiqib belgilanadi:

Xalq ta'limi muassasasining tipi	Kontingent soni (kishi)			
	I guruh	II guruh	III guruh	IV guruh
Umumta'lim maktablari*	1601 nafar va undan ortiq	881 — 1600	401 — 880	400 nafargacha
“Mehribonlik” uylari	201 nafar va undan ortiq	200 nafargacha		
Musiqqa maktablari va san'at maktablari	401 nafar va undan ortiq	400 nafargacha		
Maktabdan tashqari muassasalar	601 nafar va undan ortiq	301 — 600	300 nafargacha	
Sport maktablari, ixtisoslashtirilgan sport maktablari	Muassasalarni tegishli guruhga kiritish O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.			

* Umumta'lim muassasalariga umumta'lim maktablari hamda barcha tip va nomdagi maktab-internatlar kiradi.

4. Xalq ta'limi xodimlarining kasbiy o'sishini rag'batlantirish uchun quyidagi malaka toifalari va ushbu malakalarni olish uchun xodimlarning ma'lumot darajasiga qo'yiladigan asosiy talablar belgilanadi:

o'rta maxsus, kasbiy (pedagogik yoki bajarilayotgan lavozim vazifalariga muvofiq bo'lgan) ma'lumotga ega bo'lgan, toifasi bo'lmagan xodim;

bakalavr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan ikkinchi toifali mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan birinchi toifali mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ma'lumot darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilgunga qadar olingan oliy ma'lumotga ega bo'lgan oliy toifali mutaxassis.

Xalq ta'limi xodimlariga malaka toifalari berish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan Rahbar va pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va ularga malaka toifalari berish tartibi to'g'risidagi [Nizomga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

6. Xodim xalq ta'limining bir muassasasida boshqa lavozimga o'tgan taqdirda va shu munosabat bilan bazaviy tarif stavkasi o'zgarganda mehnat shartnomasi o'zgarishi tartibini belgilaydigan O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi qoidalari qo'llaniladi (VI bob, 3-§).

7. Umumta'lim muassasalarining o'rta maxsus, kasbiy yoki oliy ma'lumotga ega bo'lmagan, mazkur Nizom kuchga kirgan paytda pedagogik faoliyatni amalga oshirayotgan pedagog xodimlari uchun, ularning pedagogik tajribasini, shuningdek ular 2006-2007 o'quv yilida ma'lumot olish uchun tegishli o'quv muassasalariga o'qishga kirishlarini hisobga olgan holda, o'rta maxsus, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan tegishli lavozimdagi xodimning bazaviy tarif stavkasi singari bazaviy tarif stavkasi belgilanadi.

Oliy yoki o'rta maxsus, kasbiy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarni umumta'lim muassasalariga pedagogik lavozimlarga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi.

8. Oliy ta'lim muassasasining kunduzgi, kechki, sirtqi ta'lim shakllarining pedagogika yo'nalishlarida o'qiyotgan shaxslar 3-kursdan boshlab o'qishiga xalaqit bermagan holda pedagoglik ishini amalga oshirish uchun umumta'lim muassasalarida asosiy ish joyi sifatida ishga qabul qilinishi

mumkin va ularga o'rta maxsus, kasbiy ma'lumotga ega bo'lgan tegishli lavozimdagi xodimning bazaviy tarif stavkasi singari bazaviy tarif stavkasi belgilanadi.

III. Ustamalar va qo'shimcha haqlar

10. Umumta'lim muassasalari o'qituvchilariga qo'shimcha haq to'lovlari mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan foiz hisobida quyidagi miqdorlarda amalga oshiriladi:

a) sinfdagi o'quvchilar soniga ko'ra sinf rahbarligi uchun:

15 nafar o'quvchigacha — 26,4 foiz;

16 nafardan 20 nafar o'quvchigacha — 31,6 foiz;

21 nafardan 25 nafar o'quvchigacha — 36,9 foiz;

26 nafardan 30 nafar o'quvchigacha — 42,1 foiz;

31 nafar va undan ko'p o'quvchi bo'lganda — 52,8 foiz;

b) daftarlarni va yozma ishlarni tekshirganlik uchun (o'quvchilar ikki guruhga bo'lib o'qitiladigan fanlar bo'yicha ham) ajratilgan dars soatlariga mutanosib ravishda sinfdagi (sinf — komplektdagi) o'quvchilar soni 15 nafargacha bo'lganda — 8,8 foiz, 15 nafar va undan ortiq bo'lganda — 17,6 foiz.

v) informatika kabineti mudirligi uchun — 17,6 foiz.

g) laboratoriya xonasi mavjud bo'lganda, fizika yoki kimyo fani o'qituvchilaridan biriga — 50 foiz.

Bunda o'qituvchilar yozgi yillik mehnat ta'tilidan qaytgandan keyin ularga yangi o'quv yili boshlangunga qadar daftarlarni va yozma ishlarni tekshirganlik hamda informatika kabineti mudirligi uchun qo'shimcha haq to'lovlari amalga oshirilmaydi.

11. Xodimdan qo'shimcha pedagogik malakani talab etadigan mehnatning alohida sharoitlarida ishlaganlik uchun bazaviy tarif stavkasiga ustamalar qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Xodimdan qo'shimcha pedagogik malakani talab etadigan pedagogik lavozimlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan kelishgan holda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Noqulay mehnat sharoitlarida band bo'lgan xodimlarga mazkur Nizom kuchga kirgunga qadar amalda bo'lgan ustamalar saqlanib qoladi, ularning miqdori esa xodimning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan foizlarda hisoblab chiqiladi.

IV. Mehnatga soatbay haq to'lash tartibi va shartlari

12. Pedagog xodimlar mehnatiga soatbay haq to'lash:

ketma-ket ikki oydan ortiq bo'lmagan davrda kasallik yoki boshqa sabablar bilan ishda bo'lmagan xodimlarning o'rnini bosish tartibida ishlab berilgan soatlar uchun haq to'lashda;

boshqa muassasalardan jalb etiladigan o'qituvchilar va boshqa mutaxassislarining, shu jumladan o'rindoshlik bo'yicha boshqa maktablardan jalb etiladigan o'qituvchilar va mutaxassislarining pedagogik ishi uchun haq to'lashda;

o'rnini bosish tartibida umumta'lim muassasalari rahbarlari tomonidan o'tilgan o'quv soatlari uchun haq to'lashda qo'llaniladi.

13. Umumta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatiga soatbay haq to'lash stavkalari miqdori belgilangan tartibda aniqlanadi.

14. Xalq ta'limi muassasasining rahbar xodimi tomonidan uning egallab turgan shtat birligidan qat'i nazar, asosiy lavozimning bir haftada 10 soatgacha hajmda o'qituvchi lavozimi bilan qo'shib olib borilishiga (o'quv yuklamasi yuritilishiga) yo'l qo'yiladi.

V. Xalq ta'limi muassasalarida mehnatni normalashtirishni tashkil etish

15. Xalq ta'limi muassasalari pedagog xodimlari mehnatini normalashtirish yillik, choraklik va oylik ish rejalariga asoslangan.

Yillik ish rejasi o'quv, tarbiyaviy va tashkiliy tushdagi asosiy tadbirlarni bajarish uchun zarur bo'lgan ish vaqti sarfi ko'rsatilgan holda ularning ro'yxatini o'z ichiga oladi.

O'qituvchilarning yillik ish rejasi choraklar va oylar bo'yicha taqsimlangan bir yildagi 1548 soat miqdoridagi ish vaqtining jamlangan hisobidan kelib chiqadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining pedagogik mutaxassisliklari bo'yicha namunaviy yillik ish rejasi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

16. Yillik ish rejasi har bir pedagog xodim uchun yakka tartibda belgilanadi va kengaytirilgan pedagogik kengashda muhokama qilingandan keyin xalq ta'limi muassasasi ma'muriyati tomonidan tasdiqlanadi.

Ish rejalarining bajarilishini nazorat qilish xalq ta'limi muassasasi rahbari tomonidan amalga oshiriladi.

17. Yakka tartibdagi yillik ish rejalarini ishlab chiqishda xalq ta'limi muassasasi ma'muriyati o'qituvchilar va pedagog xodimlar boshqa toifalarining o'quv yuklamasi soatlari hajmini umumiy belgilangan normativlarga nisbatan kamaytirishi yoki ko'paytirishi mumkin. Bunda o'quv yuklamasining belgilangan normativlariga tuzatish kiritish hajmi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan namunaviy rejadagiga nisbatan kamaytirish yoki ko'paytirish tomonga 10 foizdan ortiq bo'lmasligi kerak.

18. Alohida hollarda xalq ta'limi muassasalarida xodimning roziligi bilan kasblar (lavozimlar)ni birga qo'shib olib borishga, shuningdek o'zining asosiy ishi bilan birgalikda ishda vaqtincha bo'lmagan xodimlarning vazifalarini bajarishga yo'l qo'yiladi. Bunda lavozimlarni birga qo'shib olib borish bo'yicha ish vaqtining jami davom etishi mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan jami ish vaqtining 50 foizidan, ya'ni yil mobaynida 774 soatdan ortiq bo'lishi mumkin emas.

19. Xalq ta'limi muassasasining har bir xodimi ish rejasi bajarilishi to'g'risida pedagogik kengashda yoki xalq ta'limi muassasasini boshqarishning boshqa kollegial organida yarim yilda kamida bir marta hisobot beradi.

20. O'qituvchilarning tarifikatsiya ro'yxati asosida o'qituvchilarga bir yarim stavka miqdorigacha belgilangan dars soatlarining bir stavkadan ortiq bo'lgan qismi bo'sh ish o'rinlari sifatida qayd etilmaydi.

21. Pedagog xodimlarga qonunchilik hujjatlarida belgilangan ustamalar, shu jumladan mavjud sertifikatlar uchun to'lanadigan ustamalar, tarifikatsiya ro'yxatida ajratilgan dars soatlariga (o'qituvchining tarif stavkasiga) mutanosib ravishda to'lab beriladi.

Bunda direktor jamg'armasi hisobidan yangi o'quv yili uchun tayinlangan ustamalar joriy yilning 1-sentabridan boshlab kelgusi yilning 31-avgustiga qadar to'lab boriladi.

22. Bo'lib o'qitiladigan fanlar bo'yicha guruhlardan birining o'qituvchisi turli sabablarga ko'ra darsda bo'lmagan holatlarda guruhlar qo'shib o'qitiladi hamda qo'shib o'qitganligi uchun qo'shimcha haq to'lovlari amalga oshirilmaydi.

Bunda ushbu fanlar bo'yicha o'qituvchilar mavjud bo'lsa bo'lib o'qitishga ruxsat etiladi.

Vazirlar Mahkamasining
2005-yil 21-dekabrda 275-son qaroriga
5-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2006-yil 1-yanvardan boshlab o'z kuchini yo'qotayotgan qarorlari ro'yxati

1. Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash shartlarini tartibga solish to'g'risida" 1994-yil 29-sentabrdagi 490-son qarori bilan tasdiqlangan Xalq ta'limi muassasalarining qo'shimcha haq to'lanadigan xodimlarining lavozimlari, qo'shimcha haqning turlari va miqdorlari ro'yxatidagi 5, 9-11, 13-14, 20 va 22-bandlar (1-ilova).

2. Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining mehnatini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2004-yil 2-iyuldagi 310-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2004-y., 7-son, 62-modda) 1-bandining ikkinchi xatboshi.

3. Vazirlar Mahkamasining "O'qituvchilar mehnatini qo'shimcha rag'batlantirishga doir eksperiment o'tkazish va xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning tarmoq setkasiga o'tish to'g'risida" 2004-yil 15-iyuldagi 335-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2004-y., 7-son, 66-modda).

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-y., 51-son, 379-modda; 2006-y., 51-52-son, 507-modda; 2009-y., 46-son, 498-modda; 2011-y., 25-son, 260-modda; 2011-y., 52-son, 561-modda; 2012-y., 36-son, 412-modda, 52-son, 587-modda; 2014-y., 52-son, 625-modda; 2015-y., 9-son, 100-modda; 2016-y., 17-son, 176-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018-y., 09/18/10/0533-son, 14.02.2018-y., 09/18/107/0697-son, 01.06.2018-y., 09/18/400/1289-son, 09.07.2018-y., 09/18/508/1477-son, 25.08.2018-y., 09/18/680/1791-son; 16.01.2019-y., 09/19/32/2481-son, 20.02.2019-y., 09/19/146/2637-son, 14.05.2019-y., 09/19/397/3123-son, 30.09.2019-y., 09/19/823/3834-son, 30.09.2019-y., 09/19/822/3840-son, 29.12.2019-y., 09/19/1046/4242-son; 27.06.2020-y., 09/20/411/1000-son, 13.08.2020-y., 09/20/480/1168-son, 28.04.2021-y., 09/21/243/0388-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.05.2021-y., 09/21/331/0501-son, 17.08.2021-y., 09/21/524/0802-son, 16.10.2021-y., 09/21/646/0963-son; 26.10.2021-y., 09/21/656/0996-son; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 03.08.2022-y., 09/22/425/0712-son; 10.05.2024-y., 09/24/272/0337-son; 10.10.2024-y., 07/24/346/0805-son; 21.03.2025-y., 06/25/51/0261-son; 01.07.2025-y., 09/25/400/0556-son; 27.08.2025-y., 09/25/538/0782-son)